

**KOREYS TILIDA TAXMIN MA'NOSINI IFODALOVCHI  
GRAMMATIK KONSTRUKTSIYALAR BO'YICHA O'TKAZILGAN  
SO'ROVNOMA NATIJALARI**

*Sevinch Mirjamilovna Mirjamilova*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining magistri, Uzbekistan E-mail:  
[mirjamilova.sevinch1403@gmail.com](mailto:mirjamilova.sevinch1403@gmail.com)*

**Kalit so'zlar:** Koreys tili, taxmin ma'nosi, grammatik konstruksiyalar, so'rovnoma natijalari, talabalar xatolari, til o'rganish metodikasi, o'zbek talabalari, intuitsiya asosidagi taxmin.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, koreys tilidagi taxmin ma'nosini ifodalovchi uchta asosiy grammatik konstruksiyani o'zbek talabalari tomonidan qo'llanilishi bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalarini tahlil qilingan. So'rovnoma 100 nafar talaba ishtirokida o'tkazilib, ular orasida eng ko'p xatoliklar va chalkashliklarga sabab bo'lgan grammatik konstruksiyalar aniqlangan. Maqola, jumladan, "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다", "-(으)ㄴ가/나 보다" va "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다" konstruksiyalari bilan bog'liq o'quvchilarning muammolarini ko'rsatadi va ularni to'g'ri o'zlashtirish uchun taklif etilayotgan metodikani taqdim etadi.

**Ключевые слова:** Корейский язык, значение предположения, грамматические конструкции, результаты опроса, ошибки студентов, методика изучения языка, узбекские студенты, интуитивные предположения.

**Аннотация:** В данной статье анализируются результаты опроса по использованию трех основных грамматических конструкций, выражающих значение предположения в корейском языке, узбекскими студентами. Опрос был проведен среди 100 студентов, среди которых были выявлены наиболее частые ошибки и затруднения при различении конструкций. В статье рассматриваются проблемы, связанные с конструкциями "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다", "-(으)ㄴ가/나 보다" и "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다", и предлагается методика для их правильного усвоения.

**Keywords:** Korean language, meaning of assumption, grammatical constructions, survey results, student errors, language learning methodology, Uzbek students, intuitive assumptions.

**Abstract:** This article analyzes the results of a survey on the use of three main grammatical constructions that express the meaning of assumption in the Korean language by Uzbek students. The survey involved 100 students, identifying the most

common mistakes and difficulties in distinguishing between the constructions. The article highlights the issues related to the constructions "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다", "-(으)ㄴ가/나 보다", and "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다", and proposes a methodology for their correct understanding and application.


Taxmin ma'nosini ifodalovchi grammatik konstruksiyalar ichida ma'nosi bir-biriga yaqin hamda o'zbek o'quvchilari ko'plab xatolikka yo'l qo'yadigan, bir-biridan ajratishga qiynaladigan 3 ta grammatik konstruksiyalar bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada umumiy hisobda 100 kishi ishtirok etdi. Ulardan 50 nafari erkak hamda 50 nafari ayol kishini tashkil etdi. So'rovnomaga 2-3-4-kurs Sharqshunoslik universiteti, Jahon tillar universiteti va Yeju universiteti talabalari jalb qilindi. Ulardan 40 nafari (41,7%) Sharqshunoslik talabalari, 37 nafari (38,5%) Jahon Tillar Universiteti, shuningdek, 23 nafari (19,8%) Yoeju universiteti talabalari edi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, 3-kurs talabalari eng faol qatnashgan bo'lib, umumiy hisobda 45 nafar (46,4%) ni, 4-kurs talabalari 31 nafar (32%) ni, 2-kurs talabalari esa eng kam ya'ni 24 nafar (21,6%) ni tashkil etdi.

Quyida so'rovnoma natijalari birma bir tahlilga tortilgan.

*"Intuitsiya asosida oddiy taxmin qilish"* mavzusiga bag'ishlanadi.

가: 눈을 가리고 물건 맞추기 게임을 하기 시작합니다. 나: 글썄, 작고 둥근 것이...

97 responses



- 아마 오렌지인 것 같아요.
- 아마 오렌지인가 봐요.
- 아마 오렌지인 모양이에요.


1-masala bo'yicha javob bergan soni 97 nafarni tashkil etgan. "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다" javobini bergan talabalar soni 45 nafar bo'lib, ular umumiy 46.4% ni tashkil etdi. "-(으)ㄴ가/나 보다" yoki "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다" javobini bergan talabalar esa mos ravishda 34% (33 nafar) va 19.6% (19 nafar) ni tashkil etdi. Ko'rinib turibiki, "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다" javobini bergan talabalar soni "

(으)ㄴ가/ 나 보다"yoki "-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 모양이" javobini bergan talabalar soniga qaraganda anchagina yuqori ko'rsatkichni ko'rsatgan<sup>1</sup>.

Quyida "Bevosita o'zining tajribasi asosida birov haqida biror bir fikrga kelish" mavzusi yoritilgan.

가: 철수 씨가 어떤 여자랑 데이트를 하던데요? 나: 그 여자를 만나서 이야기해 봤는데...

99 responses



- 얼굴이 예뻐 뿐만 아니라 성격도 좋은 여자인 것 같아요.
- 얼굴이 예뻐 뿐만 아니라 성격도 좋은 여자인가 봐요.
- 얼굴이 예뻐 뿐만 아니라 성격도 좋은 여자인 모양이에요.


2-masala bo'yicha, "-(으)ㄴ가/ 나 보다" javobini bergan talabalar soni 49 nafarni tashkil etib, 49.5% deyarli javoblarning teng yarimini egallagan. "-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 것 같다" javobini bergan talabalar soni esa 36 nafar (36.4%), shuningdek, "-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 모양이다" javobini bergan talabalar soni 14 nafar (14.1%) ni tashkil etdi. Ushbu so'rovnomada bilinadiki, talabalar to'g'ridan-to'g'ri tajriba asosida kelingan qarorga, his-tuyg'uga, beriladigan bahoga ko'proq "-(으)ㄴ가/ 나 보다" grammatik konstruksiyasidan foydalanishar ekan<sup>2</sup>.

1

<sup>2</sup> [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link)

가: 실례합니다. 제가 전에 여기에 휴대 전화를... 나: 네, 제가 보관하고 있었어요. 여기 있어요.

98 responses




Navbatdagi masala bo'yicha, "-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 것 같다" javobini bergan talabalar 48% (47 nafar)ni tashkil etdi va "-(으)ㄴ가/ 나 보다" yoki "-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 모양이다" javobini bergan talabalar mos ravishda 31.6% (31 nafar) va 20.4% (20 nafar)ni tashkil etdi.

*"O'zining tajribasidan o'tkazib, lekin shu tajribasini eslay olmay, noaniq gapirilgandagi taxmin"* mavzusi quyida yoritilgan<sup>3</sup>.

가: 저 사람 이름이 뭐였는지 기억나요? 나: 저도 이름이 생각나지 않네요.

100 responses



Navbatdagi masala biror bir ishni, tajribani qilib ko'rgandan keyin, uni aniq eslay olmasdan taxmin qilishga bag'ishlanga masaladir. Bu bo'yicha so'rovnoma javoblari quyidagicha : "-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 것 같다" javobini bergan talabalar soni 42 nafar bo'lib, ular umumiy 42 ni tashkil etdi. "-(으)ㄴ가/ 나 보다" yoki "-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 모양이다" javoblari esa mos ravishda 32% (32 nafar) va 26% (26 nafar)ni tashkil etdi. Shunday qilib, ushbu masalaga 100% talaba javobini kiritgan


<sup>3</sup> [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link)

bo‘lib, ulardan eng ko‘pi :"-(-으)ㄴ/ 는/ (-으)ㄹ 것 같다" grammatik konstruksiyani tanlagan<sup>4</sup>.

Quyidagi ikkita savol “Hali tajriba qilib ko‘rmagan voqea-hodisasi haqida oldindan bashorat qilish” ga bag‘ishlanadi.

가: 지난주에 영화 ‘겨울 이야기’를 봤어요. 그런데 사실 생각보다 별로였어요. 나: 그래요? 저는 예고편을 보면...

99 responses




Ushbu masala hali amalga oshirib ko‘rmagan, tajriba qilib ko‘rmagan hamda kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaziyatga taxmin qilishga bag‘ishlangan masaladir. Javob natijalariga ko‘ra, talabalardan "-(-으)ㄴ/ 는/ (-으)ㄹ 것 같다" javobini berganlar soni 52 nafar (52.5%)bo‘lib, eng yuqori o‘rinni egalladi. "-(-으)ㄴ가/ 나 보다" yoki "-(-으)ㄴ/ 는/ (-으)ㄹ 모양이다" javoblari esa mos ravishda 32 nafar (32.3%)ni hamda 15 nafar (15.2%) ni ko‘rsatdi. Demak, talabalar tajriba qilib ko‘rmagan, u kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatda ko‘proq "-(-으)ㄴ/ 는/ (-으)ㄹ 것 같다" grammatik konstruksiyasidan foydalanishar ekan<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link)

<sup>5</sup> [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link)

가: 이 대리, 어머니는 좀 어떠세요? 나: 덕분에 좋아지셔서 내일...

98 responses




Yuqoridagi masala bo'yicha "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다" hamda "-(으)ㄴ가/나 보다" deb javob berganlar bir xil 38.8% (38 nafardan) ni tashkil etdi. "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다" deb javob berilgan talabalar 22.4% (22 nafar) ni egalladi. "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다" hamda "-(으)ㄴ가/나 보다" deb javob bergan talabalar soni teng kelib qolganidan ko'rinadiki, talabalar ushbu grammatik konstruktsiyalarni farqlashga qiynaladilar.

Keyingi savol "suhbatdoshning kelajak haqidagi fikrini, bashoratini yumshoqlik, muloyimlik bilan rad etiladigan holda qaysi grammatik konstruksiyadan talabalar foydalanishadi?" ni bilishga qaratiladi<sup>6</sup>.

가: 우리 회사 신제품, 이만하면 성공한 거죠? 나: 글썄요. 지금 성공이나 실패냐를 판단하는 건...

97 responses



Ushbu savolga 97 nafar talaba javobni kiritgan bo'lib, ulardan eng ko'p tanlangan javob "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다" javobi bo'lib, 47.4% (46 nafar) deyarli talabalarning yarmi shu javobni tanlashgan. Keyingi o'rinda umumiy hisobda 32 %


<sup>6</sup> [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link)

( 31 nafar ) ni tashkil etgan "-(으)ㄴ가/나 보다" javobi egalladi. "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다" deb javob bergan talabalar esa atigi 20.6 % ( 20 nafar ) ni tashkil etdi. Demak, ko'p talabalar *suhbatdoshning kelajak haqidagi fikrini, bashoratini yumshoqlik, muloyimlik bilan rad etiladigan holda* "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다" grammatik konstruksiyadan foydalanadilar.

Quyida "Obyektiv dalillar asosida sababni taxmin qilish" masalasiga bag'ishlangan bir qancha savollar keltirilgan.

가: 명시 씨한테 연락을 했어요? 나: 철수 씨가 전화를 했는데 안 받은 걸 보니까...

97 responses



"Myoung Shiga xabar berdingizmi?"


Cholsu qo'ng'iroq qilganidida, qo'ng'iroqqa javob bermaganiga qaraganda.."

ushbu savolga deyarli talabalarning yarmi ya'ni 45.4% (44 nafar)i "- (으)ㄴ가/나 보다" javobini belgilagan. "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다"javobini belgilaganlar 30.9 % (30 nafar ), "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다" deb javob berganlar esa 23.7 % (23 nafar) ni tashkil etdi<sup>7</sup>.

<sup>7</sup> [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link)

가: 그 사람은 아는 것이 참 많아. 나: \_\_\_\_\_

99 responses




- 책을 많이 읽은 것 같아요.
- 책을 많이 읽었나 봐요.
- 책을 많이 읽은 모양이에요.

Ushbu savolga 99 nafar talabalar javob bergan bo'lib, talabalarning 44.4 % (44 nafar)i "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다", 32.3% (32 nafar)i "-(으)ㄴ가/나 보다", 23.2 % (23 nafar)i "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다" grammatik konstruksiyani belgilashgan. Eng kam tanlangan javob "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다" grammatik konstruksiyasi bo'lgan<sup>8</sup>.

가: 민호 씨는 대학 졸업 후에 뭐 한대요? 나: 대학원 입학 서류를 준비하는 걸 봤어요...

96 responses



- 대학원에 갈 것 같아요.
- 대학원에 갈 건가 봐요.
- 대학원에 갈 모양이에요.

Shu savolda ham obyektiv dalilga tayanib, kelajakka taxmin qilish masalasi keltirilgan. So'rovnoma natijasiga qaraydigan bo'lsak, har uchala grammatik konstruktsiya deyarli bir xil ko'rsatkichni ko'rsatgan. Ko'rsatkichi yuqoriligi bilan "-(으)ㄴ가/나 보다" ni belgilagan talabalar 35.4 % (34 nafar) ni tashkil etgan. "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다" ni tanlagan talabalar 34.4 % (33 nafar) ni ya'ni "-(으)ㄴ가/나 보다" ni belgilagan talabalar bilan atiga 1 % farq qilgan. Va nihoyat,


<sup>8</sup> [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link)



"-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다" deb javob bergan talabalar 30.2 % ( 29 nafar) ni tashkil etgan. Bundan ko‘rinadiki, talabalar uchala grammatik konstruksiyani qo‘llashda chalkashlikka yo‘l qo‘yadilar<sup>9</sup>.

가: 영화관 앞에 사람들이 북적거리네요. 나: \_\_\_\_\_

99 responses




- 재미있는 영화가 개봉된 것 같아요.
- 재미있는 영화가 개봉되었나 봐요.
- 재미있는 영화가 개봉된 모양이에요.

Navbatdagi so‘rovnoma natijalarida ham uchala grammatik konstruksiyaning javoblari bir-biriga yaqinligini ko‘rishimiz mumkin. Bu savolda ham "-(으)ㄴ가/나 보다" ni belgilagan talabalar soni yuqoriroq, ya’ni aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, 34.3 % (34 nafar) ni egallab, birinchi o‘rinni egalladi. Uning ortidan esa 37.4 % ( 37 nafar )i "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다"ni, 28.3 % ( 28 nafar)i "-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 것 같다"ni belgilashgan<sup>10</sup>.

가: 내가 오늘 병원에 가야 해요. 나: 지난 번에 눈이 아픈 게 아직...

98 responses



- 안 나은 것 같아요.
- 안 나왔나 봐요.
- 안 나은 모양이에요.


Yuqorida keltirilgan savolga talabalarning teng yarmi 50% (49 nafar)i "-(으)ㄴ/ 는/

<sup>9</sup> [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link)

<sup>10</sup> [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link)

(으)ㄹ 것 같다" grammatik konstruktsiyasini, 35.7 % (35 nafar)i "- (으)ㄴ가/나 보다" grammatik konstruktsiyasini hamda atigi 14.3 % (14 nafar)i " - (으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다" grammatik konstruktsiyasini javob tariqasida belgilashgan. Eng yuqori ko'rsatkichni "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다" grammatik konstruktsiyasi ko'rsatgan<sup>11</sup>.

(철수 씨가 몸을 떨며 집으로 들어올 때) 민수: 철수 씨, 밖에...  
96 responses



Ushbu savol ham dalil-u sababga asoslangan taxminni ifodalovchi ifoda bo'lib, bu vaziyatda ko'pgina talabalar ya'ni 45.8 % (44 nafar)i "- (으)ㄴ가/나 보다" grammatik konstruktsiyasini qo'llaganliklarini ko'rishimiz mumkin. "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다" grammatik konstruktsiyasini 31.3 % (30 nafar)i, "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다" grammatik konstruktsiyasini 22.9 % (22 nafar)i qo'llagan<sup>12</sup>.


Navbatdagi savollar "*Bilvosita ma'lumotlar asosida taxmin qilish*" ga bag'ishlanadi.

<sup>11</sup> [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLVC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLVC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link)

<sup>12</sup> [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLVC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLVC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link)

가: 밖에 왜 이렇게 시끄럽죠? 나: 집 앞에서 딸의 생일 파티를 한다고 들었는데...

96 responses




- 그걸 시작한 것 같아요.
- 그걸 시작했나 봐요.
- 그걸 시작한 모양이에요.

So‘rovnoma natijasiga ko‘ra, "- (으)ㄴ가/나 보다" javobini belgilagan talabalar soni 39 nafar (40.6%) ni, "-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄴ 것 같다" javobini belgilaganlar 34 nafar (35.4%) ni hamda " -(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 모양이다" deb belgilagan talabalar soni 23 nafar (24%) ga yetdi<sup>13</sup>.

가: 민호 씨는 홀로 계신 어머니 때문에 고향을 쉽사리 떠나지 못했대요. 나: 그 분은 효성이...

96 responses



- 대단한 것 같아요.
- 대단한가 봐요.
- 대단한 모양이에요.


Navbatdagi so‘rovnoma natijasi tahlil qilinsa, "-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄴ 것 같다" javobini belgilaganlar 1% kam 50% (47 nafar) ni tashkil etdi. "- (으)ㄴ가/나 보다" yoki " -(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 모양이다" javobini belgilagan talabalar mos ravishda 35.4 % (34 nafar) va 15.6 % ( 15 nafar) ga yetdi<sup>14</sup>.

<sup>13</sup> [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link)

<sup>14</sup> [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link)

가: 민수 씨는 집에 있어요? 나: 친구에게 들었는데 어머니께서 편찮으셔서...

97 responses



- 고향으로 돌아간 것 같아요.
- 고향으로 돌아갔나 봐요.
- 고향으로 돌아간 모양이에요

So‘nggi savolimiz bo‘yicha tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, "- (으)ㄴ가/나 보다" deb belgilanganlar talabalarning teng yarmidan oshgan, ya‘ni 58.8 % (57 nafar) ga borgan. "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다" javobini belgilaganlar 23.7 % (23 nafar) hamda "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다" deb belgilaganlar 17.5 % (17 nafar) ni tashkil etgan<sup>15</sup>.

**Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki**, taxminni ifodalovchi har uchala grammatik konstruktsiya - "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다", "- (으)ㄴ가/나 보다" hamda "-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다" ni qo‘llashda o‘zbek talabalari chalkashliklarga yo‘l qo‘yishi, bir-biridan farqlay olmasligi so‘rovnoma natijalariga ko‘ra aniqlandi. Har uchala grammatik konstruktsiyalar taxminni ifodalasa-da, vaziyat, mazmun jihatidan bir-biridan farqlandi. Shuning uchun, har uchala grammatik konstruktsiyani qay hollarda qo‘llashni chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kelgusi ishlarda ushbu uchala grammatik konstruktsiyani talaba, o‘quvchilarga qanday o‘rgatilsa osonroq tushunilishi, xatoliklarga yo‘l qo‘ymay qo‘llanilishi yuzasidan o‘qitish metodikasi ishlab chiqish maqsad qilib olindi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link) ( tadqiqod silkasi);
2. 김동욱, “한국어 추측 표현의 의미 차이에 관한 연구- ‘ㄴ 것 같다’, ‘ㄴ 듯하다’와 ‘ㄴ가 보다’, ‘ㄴ 모양이다’의 의미차이를 중심으로-,” 국어학회 (2000)

기

<sup>15</sup> [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSd0rsLvC4tH8fWtBHKM-mnWbsJ4mrlCwEMtDw8pyDkJra9qVA/viewform?usp=sf_link)

“

어

히

